

**SHARTNOMA № 24**  
(Siqilgan gaz sotish va sotib olish to'g'risida)

Qarshi shahri

" 12 " 01 2022 yil.

Amaldagi Nizom (Ustav)iga asosan "OSIYO METAN" MChJ (bundan buyon "Sotuvchi" deb yuritiladi) direktori G.Zayniev bir tomondan, ikkinchi tomondan siqilgan gaz oluvchi РБЦ ММ Карюа мунтаховев (bundan buyon "Xaridor" deb yuritiladi) rahbari ф.ч.и.и.и. quyidagi shartlarga ko'ra ushbu shartnoma tuzdik.

**1. TOVAR (XIZMAT)LARNING TO'LIQ TAFSILOTI:**

№	Tovar (mahsulot) nomi	O'lchov birligi	Miq-dori	Narxi	Yetkazib berish bahosi	QQS		Yetkazib baxosi QQS bilan
						Stavka	Summa	
	Siqilgan tabiiy gaz	metr kub						1035000

Sotilayotgan siqilgan tabiiy gaz sifat sertifikatiga ega bo'lishi va sifati bo'yicha GOST 27577-2000 davlat standartlariga javob berishi shart.

**2. MUHIM SHARTLAR**

2.1 2022 yilda «Sotuvchi» ko'rsatilgan miqdordagi siqilgan gazni (ichki yonuv dvigatellari uchun siqilgan tabiiy gaz) ushbu shartnoma bo'yicha sotadi, «Xaridor» esa sotib oladi.

2.2 Siqilgan gazni topshirish-qabul qilish joyi Qarshi shahri, Xudoyzod MFY hududida joylashgan ASGTKSH (avtomobillarga siqilgan gaz tuldirish kompressor shahobchasi) hisoblanadi.

**3. TO'LOV TARTIBI, MAJBURIYATLARNI BAJARISH SHARTLARI VA MUDDATI**

3.1 Shartnoma bo'yicha siqilgan gaz narxi metr kub hisobida hisob-kitob qilinadi. Sotuvchi ushbu shartnomada ko'rsatilgan siqilgan gazni sotadi, xaridor sotib oladigan gaz uchun 100% oldindan to'laydi.

3.2 Shartnoma tuzilgan davrda 1 metr kub siqilgan gaz narxi gaz aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat soligi bilan birga 2400 so'mni tashkil etadi va narxlar o'zgarishiga mos ravishda indeksatsiya qilinadi.

3.3 "Xaridor" olingan siqilgan gaz uchun to'lanmay qolgan summani ushbu qarzdorlik yuzaga kelgan vaqtdan boshlab bir oy muddatda to'lab bermasa ushbu muddatdan o'tgan xar bir kun uchun 0,4% miqdorida lekin to'lanmay qolgan summaning 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

**4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

4.1 "Xaridor" quyidagilar uchun majbur hisoblanadi

4.1.1 "Xaridor" siqilgan gazni qabul qilayotgan avtomashinasini texnik xolatiga, gaz balon uskunalaridan xavfsiz foydalanish qoidalariga rioya qilinishiga, uskunalarni o'z vaqtida sinovdan o'tkazilishiga hamda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilishi;

4.1.2 Gaz balon o'rnatilgan avtomashinalardan foydalanish qoidalariga amal qilinishini ta'minlash;

4.1.3 Avtomashina va unga o'rnatilgan gazbalonni texnik soz holatda saqlash;

4.1.4- Gazbalonni o'z vaqtida sinovdan o'tkazish;

4.1.5 "Xaridor" shartnomada ko'rsatilgan siqilgan tabiiy gaz miqdorini to'liq yoki qisman olganligi uchun javobgar hisoblanmaydi. Shartnomada ko'rsatilgan yillik miqdordan ortiqcha gaz olish qo'shimcha kelishuv asosida amalga oshiriladi

4.2 "Sotuvchi" "Xaridor"ning avtomashinasiga siqilgan gazni to'ldirishdan oldin quyidagilarni amalga oshirish uchun majbur hisoblanadi;

4.2.1 Avtomashina gazbaloni va uskunalari holatini nazoratdan o'tkazish;

4.2.2 Gazbalon uskunasi sinovdan o'tganligini tekshirish;

4.2.3 Haydovchini gaz balon uskunasi o'rnatilgan avtomashinalarni boshqarish huquqini beruvchi guvohnomasiga ega bo'lishini tekshirish;

4.2.4 "Sotuvchi" "Xaridor"ning texnik nosoz, yong'iniga qarshi vosita va jihozlari bilan ta'minlanmagan, metan gaz balon uskunalari o'rnatilgan avtomashinalarni boshqarish huquqiga ega bo'lmagan haydovchilar avtomashinalar gazbalonlariga siqilgan tabiiy gaz to'ldirmaslik huquqiga ega.

**5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

5.1 Tomonlar bir-birlariga yetkazilgan zarar uchun mulkiy javobgar hisoblanadi. Da'vogar tomon ushbu shartnoma shartlarini bajarmaslik bo'yicha yetkazilgan zarar uchun javobgar tomonga da'vo kiritish huquqiga ega.



5.2 "Xaridor"ning avtomobil gaz olish uchun yuborilganda uning oqibatida ro'y berishi mumkin bo'lgan holatlar bo'yicha, hamda "Sotuvchi" ning hududidan chiqqan avtomobil bilan sodir bo'lgan har qanday baxtsiz voqea uchun "Sotuvchi" javob bermaydi.

## 6. NIZOLARNI BARTARAF ETISH TARTIBI

6.1 Taraflar shartnomada ko'rsatilgan majburiyat va shartnoma shartlarini bajarmagan taqdirda O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksi va "xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni hamda boshqa qonun hujjatlari asosida javobgar bo'ladilar.

6.2 Taraflarning kelishuvi bilan hal qilib bo'lmaydigan nizolar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Qashqadaryo viloyat iqtisodiy sud orqali hal qilinadi yoki tomonlarning kelishuviga binoan bartaraf etiladi.

## 7. TOVAR (XIZMAT)LARNI QABUL QILISH TOPSHIRISH TARTIBI

7.1 Siqilgan gaz miqdori "Sotuvchi" va "Xaridor"ning vakillari ishtirokida ASGTKSH hududida joylashgan gaz tarqatish ustuni orqali o'lchanadi

7.2 Topshirilgan-qabul qilingan siqilgan tabiiy gaz miqdori oylik qaydnomaga qayd qilinadi va "Xaridor" ning vakili tomonidan imzo qo'yiladi

7.3 Oylik qaydnomaga siqilgan gazni topshirish-qabul qilish sanasi, avtomashina davlat raqam belgisi, vakilning ismi sharifi to'g'risidagi ma'lumotlar ham kiritiladi.

7.4 "Xaridor" ning ishonchnoma taqdim etgan vakili ishtirokida oylik qaydnomaga asosan oy davomida topshirilgan-qabul qilingan siqilgan gaz miqdorini schet-faktura bilan rasmiylashtiriladi.

## 8. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA TUGATISH TARTIBI

8.1 Shartnomaga o'zgartirish va qushimchalar kiritish tomonlarning roziligiga ko'ra qo'shimcha bitimni rasmiylashtirish yo'li bilan amalga oshiriladi. Shartnomaga uzgartirish va qushimchalar kiritish xaqidagi bitim u yozma shaklda bo'lgandagina va tomonlar imzolaganlaridagina haqiqiy hisoblanadi

8.2 Tomonlarning shartnoma shartlariga kiritgan qo'shimcha va o'zgartirishlar uning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. Shartnoma qonunchilik o'zgariganda O'zbekiston Respublikasining qonunchilik hujjatlarida belgilab berilgan boshqa hollarda qayta tuzilishi yoki uzgartirilish mumkin.

8.3 Shartnoma bir taraflarning taklifi bilan ikkinchi tarafni bir oy oldin ogohlantirilgandan so'ng o'zaro kelishilgan holda bekor qilinadi.

## 9. FORS-MAJOR

9.1 Hech bir taraf ikkinchi bir taraf oldida o'ziga bog'lik bo'lmagan sabablarga ko'ra yengib bo'lmaydigan kuch mavjud bo'lgan (tabiiy ofatlar, hukumatning ta'qiqlovchi qarorlari) holatlarda olingan majburiyatlarni bajara olmasa shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlar yuzasidan javobgar bo'lmaydi

## 10. BOSHQA HOLATLAR

10.1 Ushbu shartnoma ikkala taraf uchun bir xil kuchga ega bo'lib Ikki nusxada tuzildi. Shartnoma ikkala taraf tomonidan imzolaniib, imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi.

10.2 Shartnoma amal qilish muddati 31 dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

## 11. TOMONLARNING MANZILGOHI:

«SOTUVCHI»

«OSIYO METAN» MChJ

Manzili: Qashqadaryo viloyati Qarshi shahri,  
Xudoyzod MFY.

x/r 2020 8000 8006 1504 9001

MFO: 00401 INN: 303 794 086

AT Aloqa bank Toshkent bosh ofisi

Tel: 99.422-07-33

QQS kodi: 31 00 10 10 76 26

Direktor

G'.Zayniev

«XARIDOR»

Республика Болгария четиний мие.  
Шаркани Карани меликатувий ачл.

Manzili: Агроевоб -19 уо.

x/r 100021800104017096300235002

MFO: 00014 INN: 303484554

Bank: Шаркани Банк Тоскенту.

Tel: 75-224-14-57.

Rahbar:

H. A. Panadov





Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Ўзбекистон нефть маҳсулотлари  
ва газдан фойдаланишни назорат қилиш давлат инспекцияси "Ўздавнефтегазинспекция"

# ЛИЦЕНЗИЯ

АА № 0255

Мазкур лицензия билан "OSIYO METAN"  
(лицензия эгасининг тўлиқ номи)  
масъулияти чекланган жамияти \_\_\_\_\_ га

Қашқадарё вилояти, Қарши шаҳри, Худойзод м.ф.й. ҳудудида  
(руҳсат этилган фаолият тури)  
жойлашган АГТҚШ орқали сикилган табиий газни сотиш  
\_\_\_\_\_ билан

шугулланишга руҳсат этилади.

Лицензия эгасининг жойлашган жойи (почта манзили): Қашқадарё вилояти,  
Қарши тумани, Дашт к.ф.й., Акиш кишлоғи

Лицензия эгасининг солиқ тўловчи сифатидаги идентификация рақами: 303 794 086

Лицензия берилган сана: 2018 й. 29 ноябрь

Лицензиянинг амал қилиш муддати беш йил

Реестр буйича тартиб рақами: № 213

Ваколатли шахс: Н. Агзамов  
(исми шарифи, фамилияси)

(имзоси)



Лицензиянинг амал қилиш муддати \_\_\_\_\_ й. \_\_\_\_\_ гача  
узайтирилди.

Ваколатли шахс: \_\_\_\_\_  
(исми шарифи, фамилияси) \_\_\_\_\_ (имзоси)

М.Ў.

Лицензиянинг амал қилиш муддати \_\_\_\_\_ й. \_\_\_\_\_ гача  
узайтирилди.

Ваколатли шахс: \_\_\_\_\_  
(исми шарифи, фамилияси) \_\_\_\_\_ (имзоси)

М.Ў.





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektini) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
**GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

"OSIYO METAN" Mas'uliyati cheklangan jamiyat

(Yuridik shaxsning – tadbirkorlik subyektining tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

"OSIYO METAN" MChJ

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

12.02.2016

71

ro'yxat raqamli yozuv kiritilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil):

Soliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

303794086

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

Mas'uliyati cheklangan jamiyat

Joylashgan joyi:

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, XUDOYZOD MFY, JAYXUN  
KO'CHASI, 1-UY,

Guvohnoma:

Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahri, DAVLAT XIZMATLARI tomonidan  
MARKAZI berilgan

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):

